

### References

1. Saleh, Zakiah, Che Ruhana Isa, and Haslida Abu Hasan. "7 Implementation of Outcomes-Based Budgeting System in the Malaysian Government." *Public Sector Reform and Performance Management in Emerging Economies: Outcomes-Based Approaches in Practice* (2021): 155.
2. Alimovna, Paridaeva Zulfizar, and Raupova Nigora Djalolovna. "DEVELOPMENT PROSPECTS THE PUBLIC TREASURY." *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION* 2.1 (2021): 1-6.
3. Fajgenbaum, Jose, and Claudio Loser. "How to Improve Public Financial Management in the Caribbean." Editors: 95.
4. Battersby, Bryn, and Mr Ian Lienert. *Macro-Fiscal Management Practices in Eastern and Southern Africa*. International Monetary Fund, 2021.
5. Alimnazar, Islamkulov Kh. "Fiscal Policy Aimed at Ensuring the Equivalency of the Budget in the Medium Term in Uzbekistan." *Science Review* 9 (26) (2019).
6. <https://www.lex.uz/docs/3145556?ONDATE=04.05.2018>
7. <https://www.mf.uz/media/file/state-budget/obzori/concepsiya.pdf>
8. [https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2021-01/UZB-%20DFA\\_ru\\_final%20%281%29.pdf](https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2021-01/UZB-%20DFA_ru_final%20%281%29.pdf)
9. Kuchkarov, T. S. "Application of digital technologies in the treasury system of Uzbekistan." *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 7.12 (2018): 265-269.
10. Akimov, Alexandr, and Brian Dollery. "Financial development policies in Uzbekistan: an analysis of achievements and failures." *Economic Change and Restructuring* 42.4 (2009): 293-318.
11. Akimov, Alexandr, and Brian Dollery. "The Uzbek approach to financial system development: an analysis of achievements and failures." *Finance and Economics* (2009): 1-27.
12. Narayan, Francis, and Barry Reid. *Financial Management and Governance Issues in Uzbekistan*. Asian Development Bank, 2000.
13. Fainboim Yaker, Israel, and Sailendra Pattanayak. "Treasury single account: Concept, design, and implementation issues." *IMF Working Papers* (2010): 1-45.
14. <http://documents1.worldbank.org/curated/en/556421586324506269/text/Uzbekistan-Public-Expenditure-Review.txt>
15. Umaralievich, Mekhmonov Sultonali. "The main directions of the accounting reforms in the state sector in Uzbekistan." *International journal of research in social sciences* 8.2 (2019): 217-223.
16. Kasimova, G. "ISSUES OF IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK OF THE STATE PROCUREMENT IN THE TREASURY SYSTEM." *International Finance and Accounting* 2019.2 (2019): 13.
17. Mansurov Mansur Alisherovich. *The Importance of Treasury and Central Bankbills in the Implementation of Monetary Policy*. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*. 2020. № 24(2). Pp. 341-349

### IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING IQTISODIY MOHIYATI VA ASOSIY JIHATLARI

**Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li -**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
"Moliyaviy tahlil va audit" kafedrasida tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi o'rganilgan. Jumladan, ishlab chiqarish xarajatlari hisobining mohiyati va tashkil etishning asosiy jihatlari tizimli o'rganilgan. Xarajatlarni elementi bo'yicha tarkibi, strukturasi va dinamikasini tahlili hamda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo'nalishlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, audit, iqtisodiy tahlil, moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish xarajatlari tahlili, xarajatlar tarkibi, ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy huquqiy asoslari tizimi, ishlab chiqarish moddiy xarajatlar, biznes-reja tahlili.

### ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ РАСЧЕТА СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ В КОНТЕКСТЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

**Оманов Санжар Курбаназар угли -**  
Ташкентский Государственный Экономический Университет  
докторант кафедры «Финансовый анализ и аудит»

**Аннотация:** В статье исследуется расчет себестоимости продукции в субъектах хозяйствования. В частности, систематически изучается сущность расчета себестоимости продукции и основные аспекты организации. Изучены анализ состава, структуры и динамики элемента затрат и направления расчета себестоимости продукции.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, аудит, экономический анализ, финансовый анализ, себестоимость продукции, анализ себестоимости продукции, структура затрат, система нормативно-правовой базы организации производственного учета, материальные затраты продукции, анализ бизнес-плана.

### THE ECONOMIC SIGNIFICANCE AND MAIN ASPECTS OF THE CALCULATION OF PRODUCTION COSTS IN THE CONTEXT OF ECONOMIC DEVELOPMENT

**Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li -**  
Tashkent State Economic University PhD student  
of the Department of "Financial Analysis and Audit"

**Annotation:** The article examines the calculation of production costs in business entities. In particular, the essence of the calculation of production costs and the main aspects of the organization are systematically studied. The analysis of the composition, structure and dynamics of the cost element, as well as the directions of the calculation of production costs are studied.

**Keywords:** accounting, audit, economic analysis, financial analysis, production costs, production cost analysis, cost structure, system of regulatory framework for the organization of production accounting, production material costs, business plan analysis.

**Kirish.** Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonalarining barqaror faoliyatini ta'minlashda moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanadi. Bu vazifalarni hal etishning asosiy maqsadi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirish, uning sifatini yaxshilash va tovar bozoridagi raqobatdoshligini oshirishni ta'minlashdir.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda xarajatlar alohida o'rin tutadi. Har qanday ishlab chiqarish jarayonida sarf xarajatlar bo'ladi. Aynan xo'jalik faoliyati davomida olinadigan yakuniy daromad bevosita ishlab chiqarilgan mahsulotga sarflangan xarajatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Qanchalik kam sarf xarajat evaziga ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarilsa, olinadigan foyda shuncha ko'p bo'ladi. Bozor munosabatlari jarayonida asosiy qonuniyatlardan biri ham xarajatlarni kamaytirish va tadbirkorona faoliyat yuritish asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va moddiy manfaatdorligini oshirishdir.

Shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hisobga olish, auditorlik tekshiruvidan o'tkazish va tahlil qilish, ularni kamaytirish tadbirlarini belgilash bozor sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatini yaxshilash, tannarxini to'g'ri belgilash va sotish jarayonini tashkil etish, nihoyat moliyaviy natijalarini to'g'ri va aniq hisobga olish, tahlil va audit qilish ham zarur hisoblanadi.

Korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ularning bir maromda faoliyatini muvaffaqiyatli davom ettirishlarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil etish va mahsulot tannarxini ilmiy asoslangan kalkulyatsiyasini o'rnatish ham muhim ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish hisobi bo'yicha xalqaro standartlar va uni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tashkil etish amaliyotini o'rnatish maqsadida xara-

jatlarning hisobi yo'nalishiga muvofiq xarajatlarni turkumlashning turli variantlari ko'zda tutadi. Xarajatlar hisobining yo'nalishlar deganda ishlab chiqarishga bo'lgan va umumlashtirilgan maqsadga yo'naltirilgan xarajatlar hisobining zarur faoliyat doirasi tushuniladi. Ichki ma'lumot iste'molchilari o'zlariga ushbu muammo bo'yicha ma'lumot bilan ta'minlash kerak bo'lgan hisob yo'nalishini aniqlaydilar.

Daromad va xarajatlar to'langan vaqti va pul kelib tushgan sanadan qat'i nazar, qaysi davrga taalluqli bo'lsa, o'sha hisobot davrida buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq aks ettiriladi[1].

Korxonalar faoliyatida ishlab chiqarish hisobini tashkil etish bo'yicha barcha me'yoriy huquqiy asoslar shakllantirilgan bo'lib ular bo'yicha qonunlar, qarorlar, yo'riqnomalar, milliy standartlar va boshqa qonuniy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarorida[2] moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalarini mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi belgilab qo'yilgan. [2]

Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir[3].

Korxonalar xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy huquqiy asoslarini tizimlashtirilgan holda aks ettirish mumkin (1-chizma).

Ishlab chiqarish hisobini bevosita va bilvosita tashkil etishni tartibga soluvchi qonunlar va qonuniy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari,)

Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishni bazaviy tamoyillarini umumlashtiruvchi me'yoriy hujjatlar (yo'riqnomalar, nizomlar, buxgalteriya hisobi milliy standartlari va boshqalar)

Korxonalarda ishlab chiqarish ob'ektlari hisobini yuritish mexanizmi, xususiyatlarini aks ettiruvchi ishlab chiqarish hisobini tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarni mujassamlashtirgan hisob siyosati

### 1-chizma. Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy huquqiy asoslari tizimi.

*Manba:* Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi chizmadan aytishimiz mumkinki ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy huquqiy asoslari negizini 2016 yil 13 aprelda qabul

qilingan O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida” gi qonuni tashkil etadi. Ushbu qonun talablari bo'yicha hisob ob'ektlaridan biri

bo'lgan ishlab chiqarish hisobini tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" gi Nizom [4] qabul qilingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Iqtisodiyot fanlari doktori, professor B.A.Xasanov fikricha, "Korxonada faoliyatining muhim va unga baho beradigan mezon ko'rsatkichlaridan biri foyda va rebtabellekdir. Foydaga ta'sir etuvchi omil bu tannarxdir" [5].

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor R.D. Dusmuratov fikricha, xarajatlarni hisobga olish obyektlari - bu xarajatlar vujudga keladigan va hisobga olinadigan alohida tarkibiy bo'linmalar hisoblanadi [6].

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent A.Shoalimovning fikricha, mahsulot tannarxini arzonlashtirish jonli mehnat hamda buyumlashgan mehnatni tejashni aks ettiradi, foydaning ortishini ta'minlaydi, ulgurji va chakana narxlarni arzonlashtirish imkonini yaratadi [7].

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent A.V. Ilina fikricha, xarajatlar - hisobot davrida tashkilotning iqtisodiy faoliyatida ishlatilgan moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarning qiymati. Xarajatlar tashkilotning aktivlari yoki xarajatlari bo'lishi mumkin [8].

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent D.M. Akbasheva fikricha, xarajatlarni samarali boshqarish uchun ishlab chiqarishni hisobga olish va xarajatlar va ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashning to'g'ri usulini tanlash kerak [9].

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni uning huquqiy asoslari takomillashtirish hisoblanadi. Bu esa, ilmiy maqola mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va


deduktsiya, tizimli yondashuv, statistik, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil usullardan foydalanildi. Xususan, taqqoslash usuli korxonada faoliyatini tahlil qilishning eng asosiy usuli bo'lib, undan moliyaviy natijalar tahlilida ham foydalaniladi. Chunki taqqoslash asosida baholash uchun qo'llaniladigan har bir ko'rsatkich, har bir raqam, nazorat va prognoz xuddi shunday ko'rsatkich bilan taqqoslagandagina ahamiyatli hisoblanadi. Taqqoslash natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini tizimli nazorat qilish va har tomonlama baholash imkoni bo'ladi.

Omilli tahlil usuli ishlab chiqarish xarajatlari tahlilida qo'llaniladigan asosiy usul hisoblanadi. Chunki omilli tahlil usuli xarajat ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi har bir omillarni hisob-kitob qilishda foydalaniladi. Mazkur usulni qo'llash natijasida xarajatlarni kamaytirish va foyda hajmini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash imkoni bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Korxonada faoliyatining muhim va unga baho beradigan mezon ko'rsatkichlaridan biri foyda va rebtabellekdir. Foydaga ta'sir etuvchi omil bu tannarxdir. [5]

Mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish yoki mahsulot (ish, xizmat)larni qayta ishlashda foydalaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xom ashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya, asosiy vositalar hamda ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning bahosini ifodalaydi. Ushbu xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi tartibda guruhlanadi (2-chizma).



**2-chizma. Mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlari**

*Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Endi “G’alla – Alteg” aksiyadorlik jamiyatida dinamikasini tahlilini quyidagi 1-jadvalda ko’rib xarajatlarni elementi bo’yicha tarkibi, strukturasi va chiqamiz.

**1-jadval**

**“G’alla – Alteg” aksiyadorlik jamiyatida xarajatlarni elementi bo’yicha tarkibi, strukturasi va dinamikasini tahlili**

№	Xarajat guruhlari	2021 yil 1-chorak boshi		2017 yil 1-chorak oxiri		Farqi	
		Summa, ming so’m	Ulushi, %	Summa, ming so’m	Ulushi, %	Summa, ming so’m	Ulushi, %
A	B	1	2	3	4	5	6
1.	Moddiy xarajatlar	37073136	83,7	32642067	82,2	-4431069	-1,5
2.	Mehnat haqi xarajatlari	853709	1,9	795791	2	-57918	0,1
3.	Ijtimoiy sug’urta ajratmalari	110990	0,3	103461	0,3	-7529	0
4.	Asosiy vosita amortizatsiyasi	824238	1,8	754712	1,9	-69526	0,1
5.	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	5422450	12,3	5406747	13,6	-15703	1,3
	Jami ishlab chiqarish xarajatlari	44284523	100	39702778	100	-4581745	-

*Manba: «G’alla-Alteg» AJ ma’lumotlari asosida tuzildi.*

1-jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki “G’alla – Alteg” aksiyadorlik jamiyatida jami ishlab chiqarish xarajatlari 2021 yil 1-chorak boshida 44 284 523 ming so’mni, 2021 yil 1-chorak oxirida esa 39 702 778 ming so’mni tashkil qilgan holda 4 581 745 ming so’mga kamaygan. Jami xarajatlar tarkibida moddiy xarajatlar ulushi 2021 yil 1-chorak boshidagi 83,7 foizdan hisobot yiliga kelib 82,2 foizga qadar pasayishi, shartnoma bo’yicha xomashyo, yoqilg’ilarni chetdan etkazib berish majburiyatlarini bajarilishi, mehnat unumdorligini kamayishi bilan izohlanadi. Jamiyatda jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida asosiy vositalar amortizatsiyasi xarajatlarining ulushi 2021 yil 1-chorak oxirida 1,9 foizni tashkil qilgan holda, 0,1 foizga oshgan. Shu bilan birga jamiyatda mehnatga haq to’lash xarajatlari 57918 ming so’mga kamaygan bo’lib, uning jami xarajatlardagi salmog’i yil boshida 1,9 foiz, oxirida esa 2 foizni tashkil qiladi. Jamiyatda ijtimoiy sug’urta ajratmalarining jami xarajatlardagi ulushi o’zgarmagan, boshqa xarajatlarning ulushi esa 1,3 foizga oshgan. Tahlil natijalaridan ko’rinib turibdiki, jamiyatda jami ishlab chiqarish xarajatlari kamaygan. Bu esa mutanosib ravishda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kamayganligini ko’rsatib turibdi.

Xarajatlarni hisobga olish obyektlari – bu xarajatlar vujudga keladigan va hisobga olinadigan alohida tarkibiy bo’linmalar[6].

Xarajatlarni hisobga olishning umum qabul qilingan ta’rifining o’rtilishi quyidagicha: «Xarajatlarni hisobga olish bu tegishli xo’jalik yurituvchi subyektning faoliyati – ta’minot, ishlab chiqarish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotish, iste’molchiga yetkazib berish jarayonlarida sodir bo’lgan voqealarni miqdoriy o’lchash (miqdor va qiymat o’lchovida). Qayd qilish, guruhlashtirish, tayyor mahsulotlar tannarxining tarkib topishi chegarasi bo’yicha tahlil qilishga qaratilgan va tushunilgan faoliyatdir.


Hisobda xarajatlarning uch turi haqida ma’lumot to’planadi: ishchi kuchi sarflari, materiallar, ustama xarajatlar. Keyin umumlashtirilgan xarajatlari hisob yo’nalishlari bo’yicha taqsimlanadi:

1. Tayyor bo’lgan mahsulotning tannarxini va olingan foydani aniqlash uchun.

2. Boshqaruv qarorni qabul qilish uchun.

3. Nazorat va tartibga solish jarayonini yo’lga qo’yish uchun.

Uch yo’nalishning har biri o’z navbatida hisobni detallashtirishni, ya’ni xarajatlarni turkumlashni talab qiladi. Masalan, ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo’nalishlari quyidagilardan iborat (3-chizma).



**3-chizma. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobining yo’nalishlari**

*Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan*



Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning quyidagi usullari keng tarqalgan hisoblandi: oddiy usuli; me'yoriy (normativ) usuli; buyurtmali usuli; bo'linmali (jarayonli) usuli; "Direkt-kosting" usuli; "Standart - kost" usuli.

Tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lmagan tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Tannarxni aniqlashning me'yoriy usuli xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yorlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yornomalar vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko'rib chiqiladi.

Mahsulot tannarxini arzonlashtirish jonli mehnat hamda buyumlashgan mehnatni tejashni aks ettiradi, foydaning ortishini ta'minlaydi, ulgurji va chakana narxlarni arzonlashtirish imkonini yaratadi. [7]

Tannarxni aniqlashning buyurtma usuli ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot (ish, xizmat) (bir xildagi mahsulotlar guruhi)ga doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadigan va hisobga olinadigan yakka tartibdagi va mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llanadi. Buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruksiyalarga ega bo'lgan alohida agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'lagigicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi.

Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil qiladi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish tannarxi ularning konstruksiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarining tannarxi bo'yicha baholanadi.

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan tashkilotlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi.

Xarajatlar - hisobot davrida tashkilotning iqtisodiy faoliyatida ishlatilgan moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarning qiymati. Xarajatlar tashkilotning aktivlari yoki xarajatlari bo'lishi mumkin [8].

Xarajatlarni samarali boshqarish uchun ishlab chiqarishni hisobga olish va xarajatlar va ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashning to'g'ri usulini tanlash kerak. [9]

Bosqichli usul tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Yarim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi va mazkur bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hamdir.

Yarim tayyor mahsulotsiz variantda faqat oxirgi bosqich mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxigina hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi.

Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi. Bir texnologik jarayonda bitta xom ashyo va materiallardan turli xildagi, ulardan har biri o'zining sotish narxiga ega bo'lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilganda ushbu turdagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb ataladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

A) iqtisodiy natijalarni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun subyektning ma'muriyatini zarur va yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

B) chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o'rnatish, ularni me'yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish;

V) ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini hisoblash;

G) subyektning tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy natijalarini aniqlash va baholash;

D) uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va texnologiya dasturlarining qoplanishi, ichki va tashqi bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha rentabellik darajasi, asosiy vositalar va tovar-moddiy zahiralarga qo'yilgan mablag'larning samaradorligi va faoliyati bo'yicha boshqaruv hisobi ma'lumotlarini bir tizimga keltirish.

Ishlab chiqarish tarmog'ining xususiyatlariga bog'liq holda tovar-moddiy zaxiralar, shu jumladan qo'shimcha mahsulotlar tannarxini aniqlashning qo'llanadigan usullari tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Demak, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning asosiy yo'nalishi bu subyektning ishlab chiqarish faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va ushbu faoliyatni amalga oshirishda sarflangan xarajatlarni boshqarishdir.

Xarajatlarning turlari ma'lum moddalardan iborat bo'lib, alohida hisobga olinadi va nazorat qilib boriladi. Shuni ham qayd qilish kerakki, korxonalar faoliyatida xarajatlarning asossiz kamaytirilishi kutilayotgan natijalarni beravermasligi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz sodir bo'lib turishi tufayli u mehnat sarfi va ishlab chiqarish vositalarini mehnat predmeti va mehnat vositalarini uzluksiz talab etib turadi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ishlashi va yangilab turishini talab etadi.

Iqtisodiy jarayonlarda ishlab chiqarish hisobini ilmiy asoslangan holda islohotlarga mos tashkil etish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Har qanday ishlab chiqarish jarayonida sarf xarajatlar bo'ladi. Aynan xo'jalik faoliyati davomida olinadigan yakuniy daromad bevosita ishlab chiqarilgan mahsulotga sarflangan xarajatlar miqdoriga bog'liq bo'ladi. Qanchalik kam sarf xarajat evaziga ko'proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarilsa, olinadigan foyda shuncha ko'p bo'ladi. Bozor munosabatlari jarayonida asosiy qonuniyatlardan biri ham xarajatlarni kamaytirish va tadbirkorona faoliyat yuritish asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va moddiy manfaatdorligini oshirishdir.

Korxonalar uchun har bir mahsulot turini ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar tarkibini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham alohida mahsulot turi bo'yicha ishlab chiqarish tannarxini tahlil qilishda sarf xarajatlar tarkibini ifoda qiluvchi xarajatlar guruhi o'rganiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlarining

90 foiz qismini moddiy xarajatlar tashkil qiladi. Mahsulot tannarxini kamaytirish uchun moddiy xarajatlarni maqbullashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga hamda sotish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Korxonalarda xarajatlarni hisobga olishning buyurtmali usul qo'llanilmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida ishlab chiqarish hisobining samarali usullarini tanlash, uni joriy qilishning tashkiliy-texnologik jihatlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash zarurati vujudga keldi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, xarajatlarni "Direkt kosting" tizimi bo'yicha hisobga olish taklif qilish mumkin. Ushbu usul tannarxni aniqlash, audit va tahlil qilish natijasida samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishini ta'minlash asoslanadi.

"Zaxiralar" (IAS №2) nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida tovar-moddiy zaxiralarlarni hisobga olishda asosiy masala bo'lib tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi qanday summada aktiv sifatida tan olinishi va ular bilan bog'liq bo'lgan daromadlar kelgusi davrlarda tan olinguncha hisobga olinishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarorida aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar 2021-yildan boshlab hisob yuritish va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni tayyorlash faqat MHXS asosida amalga oshirilishi ishlab chiqarish xarajatlari hisobini mohiyati, dolzarbligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari ichki nazoratini to'g'ri yo'lga qo'yish, auditorlik tekshiruvi natijalaridan foydalanish xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini to'g'ri aniqlashga olib kelib, mahsulotlar raqobatbardoshligi va korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Shu boisdan ham mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari nazoratini takomillashtirish maqsadida korxonada yiliga ikki marta ichki audit tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish maqsadida auditorlik tekshiruvini o'tkazish va uning natijalari bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilab borish lozim.

Xo'jalik subyektlarida ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat: boshqaruv usullarini, ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilishni, xo'jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash, moddiy resurslardan tejab-tergab foydalanish, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish kabilar. Ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish rezervi har bir xarajat moddalari bo'yicha innovatsiyani (yangi

texnika, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish), qo'llash orqali erishiladi.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy qilish korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditi va tahlilini takomillashtirib, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

**Manba va adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi 2016-yil 13-aprel, O'RQ-404-son qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son qarori. 2020 yil 24 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos" (AB 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro'yxatga olingan.)
4. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 №54 son.
5. Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik.-T: Iqtisodiyot, 2019.
6. Dushmanov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. –T.:Fan va texnologiya, 2013. -476 b.
7. Shoalimov A.X., va boshqalar. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.:Lesson-press, 2016.
8. Управленческий учет : учеб. пособие / А. В. Ильина, Н. Н. Ильшева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.
9. Акбашева Д.М. Особенности учета затрат и калькулирования себестоимости продукции // Вестник Евразийской науки / The Eurasian Scientific Journal <https://esj.today> 2020, №6, Том 12 / 2020, No 6.

**КОРХОНАЛАР МОЛИЯВИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲОЛАТИ МОНИТОРИНГИ ВА ТЎЛОВГА  
ЛАЁҚАТЛИЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ЎТҚАЗИШ МЕЗОНЛАРИ**

**Хасанов Баходир Акрамович,**  
ТДИУ "Молиявий таҳлил ва аудит"кафедраси профессори,  
иқтисодиёт фанлари доктори.  
**Худайбердиев Бахтиёржон Марибжон ўғли,**  
ТДИУ магистратура талабаси

**Аннотация.** Мазкур мақолада корхоналарнинг молиявий ҳолати барқарорлиги ва тўловга лаёқатлилиги таҳлилни ўтказишда қўлланиладиган усуллар ҳамда уларни баҳолаш мезонлари халқаро тажриба асосида илмий-амалий жиҳатдан ёритиб берилган.

**Калитли сўзлар:** мониторинг, молиявий ҳолат, молиявий барқарорлик, тўлов қобилияти, реинвестиция қилиш, иқтисодий ночорлик.

**МОНИТОРИНГ ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ И КРИТЕРИЯ  
ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**Хасанов Баходир Акрамович,**  
профессор кафедры "Финансовый анализ и аудит" ТГЭУ,  
доктор экономических наук  
**Худайбердиев Бахтиёржон Марибжон ўғли,**  
студент магистратуры ТГЭУ

**Аннотация.** В данной статье освещены методы, используемые при анализе финансовой устойчивости и платежеспособности предприятий, и критерии их оценки на основе международного опыта.

**Ключевые слова:** мониторинг, финансовое состояние, финансовая устойчивость, платежеспособность, реинвестирование, экономическая несостоятельность.

**MONITORING OF FINANCIAL AND ECONOMIC STATE AND CRITERIA  
FOR ANALYSIS OF SOLVENCY OF ENTERPRISES**

**Khasanov Bakhodir Akramovich,**  
professor of the department "Financial analysis and audit" TSUE,  
Doctor of Economic Sciences  
**Khudayberdiev Bakhtiyorjon Maribjon ogli,**  
Master's student at TSUE

**Annotation.** This article discusses the methods used in the analysis of the financial stability and solvency of enterprises, and the criteria for their evaluation based on international experience.

**Keywords:** monitoring, financial condition, financial stability, solvency, reinvestment, economic insolvency.